



MIFOLOGIK OBRAZ VA YOZUVCHI XAYOLYI-MISTIK DUNYOSI TALQINI (Shodiqul Hamroning "Tushimdagi Olovxon" hikoyasi misolida)

Sarvinoz Narzulloyevna Oripova,

"Alfraganus University" nodavlat oliy ta'lim muassasasining "Xorijiy filologiya" kafedrasida katta o'qituvchisi.

sarvinozoripova54@gmail.com

Orcid:0009-0001-9000-0682

DOI:<https://doi.org/10.54613/ku.v18i.1569>

MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 15-aprel 2026-yil

Tasdiqlandi: 17-aprel 2026-yil

Jurnal soni: 18-A

Maqola raqami: 14

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

iblis, badiiyat, nafs, obraz, hikoya, kontsepsiya, usul

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada Shodiqul Hamroning "Tushimdagi Olovxon" hikoyasidagi Iblis obraziga oydinlik kiritildi. Iblis hikoya qahramonini yo'ldan ozdiruvchi bo'lib hayotini parokanda qilmoqchi. Lekin unga vafot etgan akasi yordamga keladi. Ilon borazi mifopoetik talqin ekanligi maqolada asoslandi. Maqolada, shuningdek, tush motivining badiiy struktura va kompozitsiyadagi o'rni, uning qahramon ruhiyati va ichki konfliktlarini ochib berishdagi funksiyasi chuqur tahlil qilinadi. Iblis va ilon obrazlari orqali inson nafsining turli ko'rinishlari, axloqiy tanlov va ruhiy poklanish jarayonlari mifopoetik hamda psixoanalitik yondashuvlar asosida yoritiladi. Tadqiqot natijalari zamonaviy o'zbek hikoyachiligida mistik tafakkur va ramziy obrazlarning badiiy-estetik ahamiyatini aniqlashga xizmat qiladi. Shuningdek, maqolada yozuvchi ijodida tun, tush va ong osti voqe'liklarining o'zaro uyg'unligi insonning axloqiy tanlovi, nafs va iymon kurashi bilan chambarchas bog'liq ekanligi ko'rsatildi. Iblis obrazi an'anaviy diniy talqindan tashqari, zamonaviy inson ruhiyatidagi ichki zaifliklar, vasvasa va ma'naviy sinovlar ramzi sifatida ham ochib berildi. Tahlillar natijasida mifologik obrazlar zamonaviy o'zbek hikoyachiligida yangi semantik yuklama kasb etib, badiiy tafakkurning chuqurlashishiga xizmat qilayotgani, shuningdek, yozuvchining estetik konsepsiyasida inson ruhiyati markaziy o'rin egallashi aniqlangan.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 15 April 2026

Approved: 17 April 2026

Volume: 18-A

Paper number: 14

KEYWORDS

devil, fiction, ego, image, story, concept, method

ANNOTATION

This article sheds light on the image of the Devil in Shodiqul Hamro's story "The Fireman in My Dream." The Devil is portrayed as a seducer who attempts to ruin the life of the story's protagonist, while his deceased brother comes to his aid. The article argues that the serpent's path represents a mythopoetic interpretation.

The study also analyzes in depth the role of the dream motif in the artistic structure and composition of the work, as well as its function in revealing the protagonist's psyche and inner conflicts. Through the images of the Devil and the serpent, various manifestations of human desire, moral choice, and processes of spiritual purification are explored based on mythopoetic and psychoanalytic approaches.

The findings of the research contribute to identifying the artistic and aesthetic significance of mystical thinking and symbolic imagery in contemporary Uzbek storytelling. The article further demonstrates that the harmony of night, dream, and subconscious realities in the writer's work is closely connected with a person's moral choices and the struggle between ego and faith.

In addition to traditional religious interpretations, the image of the Devil is also revealed as a symbol of internal weaknesses, temptations, and spiritual trials in the modern human psyche. The analysis shows that mythological images acquire new semantic meanings in modern Uzbek prose, serving to deepen artistic thinking, while the human psyche occupies a central place in the writer's aesthetic concept.

Kirish. Ayonki, shiddat bilan tovlanayotgan global dunyoda odam bolasi tezda shon-shuhratga burkanib, boyish ilinjida ancha-muncha razilliklarni qilishdan ham toymaydi. Chunki Iblis yo'rig'iga yurgan bandai o'z, qaysi yo'l bilan bo'lsa-da, birlamchi maqsadi baxtli yashashdir. Aksincha, bo'lsa, och-nochor, yupun-mazlum umr kechirib, bu dunyo saodatini ko'rolmasligi tayin. Shodiqul Hamro hikoyalarda tun obrazi juda katta kontseptual qarashlarni hal etilishiga yo'l ochadi. Chunki yozuvchining aksariyat voqealari tunda, qora tunda sodir bo'ladi. Frants Kafka yoki Albert Kamyu ijodida ham bu usul mavjud, biroq Shodiqul Hamro ijodiyotida tun orqali mistik-fantastik qarashlar, voqe'likni yorituvchi kriteriya sifatida asosiy fragmentlarga evriladi. Jonzotlar, itlar, ilonlar va chayon obrazi ham hikoyada katta bir ijodiy g'oya arxitektonikasini namoyon bo'lishiga imkon beradi.

Ushbu maqolada "Tushimdagi Olovxon" nomli hikoyasidagi azim mifologiyaning yangicha talqinini ko'rib chiqamiz. Hayot bir maromda kechadigan jarayon emas. Uning esa o'ziga yarasha qiyinchiliklar bor. Shunday ekan, ushbu hikoyada – tush motivi alohida ahamiyat kasb etadi. O'ng va tush orasidagi sodir bo'layotgan voqe'lik inson ruhiyatini parmalab tashlayotgan og'riqlar, shaytoniy, iblisona qarashlarning o'tkir nigohi, adashganlar va adashirganlar qismati, dunyo va oxirat uyusidagi odamlar kechmishlari hayot haqiqatini bir bahya anglashga yetaklaydi.

Ma'lumki, yangi davr hikoyachiligida Shayton obrazi hamisha ham ko'pchilik ijodkorda hal qiluvchi talqin mezonlari bo'lib qolmagan. G'arb adabiy tafakkurida – Kafkadagi "Evrilish"da ham, Joysning tafakkurida ham, Chomerset Moemning qator hikoyalari ham o'ziga xos tarzda yuzaga chiqqan. Baayni muddao shuki, Shodiqul Hamro ijodida la'natlangan shayton obrazi tunda o'z qahramonini bezovta qiladi. Hikoyada ikki syujet mavjud. Birinchisi asosiy voqe'lik tushda sodir

bo'ladi. Ikkinchisi voqe'lik shu tushdagi masalani hal qilishga asos vazifasini o'taydi.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur tadqiqotning nazariy-metodologik asosini tashkil etuvchi manbalar bir necha yo'nalishda — adabiyot nazariyasi, badiiy asarda obraz va xarakter talqini, mifopoetik yondashuv hamda psixoanalitik qarashlar kesimida o'rganildi. Jumladan, "Adabiyot nazariyasi" asarida hikoya janrining badiiy tabiati, undagi xarakter va syujet o'zaro munosabati atroflicha yoritilib, xarakter badiiy asarning markaziy komponenti sifatida talqin etiladi [1, 74-b]. Ushbu manba hikoyadagi obrazlar tizimini, xususan, Iblis va mifologik obrazlarning funksional vazifasini ochishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

I. Haqqulovning ilmiy qarashlarida inson ruhiyati, nafs kategoriyasi va uning bosqichlari tahlil qilinib, badiiy asarda ichki kechinmalarni ifodalashda ruhiy-axloqiy omillarning o'rni asoslab beriladi [2, 12-b]. Bu yondashuv "Tushimdagi Olovxon" hikoyasidagi qahramon ruhiyatidagi kurashlar, nafs va iymon o'rtasidagi ziddiyatni talqin etishda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

Erix Frommning psixoanalitik qarashlari tush fenomenini ong va ongsizlik o'rtasidagi murakkab jarayon sifatida talqin etishga imkon beradi. Olim tushlarni insonning yashirin istaklari, ichki ziddiyatlari va ijtimoiy bosimlar bilan bog'liq holda izohlaydi [4, 67-b]. Ushbu nazariya asosida hikoyadagi tush voqe'liklari qahramon ruhiyatining chuqur qatlamlarini ochuvchi vosita sifatida talqin qilindi.

Shuningdek, diniy-manbaviy adabiyotlar ham tadqiqotda muhim o'rin tutadi. Islomiy manbalarda Iblis obrazi, uning insonni yo'ldan ozdiruvchi mohiyati hamda nafs bilan bog'liqligi keng yoritilgan bo'lib, bu qarashlar badiiy talqin bilan uyg'un holda tahlil qilindi [5]. Qur'oni karim oyatlari

va tafsiyiriy izohlar orqali inson va shayton o'rtasidagi azaliy ziddiyatning falsafiy ildizlari ochib berildi [6].

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda badiiy matnning tahlil qilishning kompleks yondashuvlari qo'llanildi. Xususan, qiyosiy-tipologik metod yordamida Shodiqul Hamro hikoyasidagi mifologik obrazlar jahon adabiyotidagi o'xshash talqinlar bilan solishtirildi. Struktur-semantik tahlil asosida Iblis, ilon va tush motivlarining badiiy funksiyasi hamda ramziy ma'nolari ochib berildi. Shuningdek, psixanalitik yondashuv (Z. Freyd va E. Fromm qarashlariga tayangan holda) orqali qahramon ruhiyati, ong va ongsizlik jarayonlari talqin qilindi. Mifopoetik metod vositasida esa asardagi mistik-fantastik unsurlar va ularning milliy hamda diniy qarashlar bilan bog'liqligi izohlandi. Natijada, mazkur metodlar uyg'unligi hikoyadagi obrazlar tizimi va yozuvchi badiiy konsepsiyasini chuqurroq o'chishga xizmat qildi.

Natijalar. Shuni alohida ta'kidlash joizki, hikoyaning sermahsul tarzda hal etishga olib boruvchi munosabatli nutq aynan yozuvchi hayolida (qahramonning ruhiy olamida, tushida) sodir bo'ladi. Hikoyani muqaddasiga e'tibor qaratamiz:

"Haftaning payshanbadan jumga o'tar kechasi edi, kun uzog'i qimir-qimirdan qattiq toliqqan ekanman, shekilli, erta oqshomdayoq toshdek uxlab qolibman. Umrim bino bo'lib hech qachon bunchalik uzoq uxlamanimni eslay olmayman, go'yo qandaydir sirli kuch tilsimlab tashlangan tong otib, kun yoyilib ketguncha qadar uyqudan ko'z ochmabman. Batahqiq, juda g'alati tush ko'ribman. Tushimda tunning allaqaysi pallasida uyg'onib ketibman va to'shagimdan turib, eshik tomon yuribman. Tun ayni quyuk tortadigan mahal bo'lishiga qaramay, hovlimiz huddi sutga chayilgandek yorishib ketgan, uyimiz ustiga ko'tarilgan to'lin oy qaynab-toshib nur sochgancha hamma yoqni harir pardaga o'rab tashlagan edi, faqat tirik jon borki, barchasi bu farahbaxsh kechaga mahliyo bo'lib olgandek tiq etgan tovush quloqqa chalinmas, odatda onda-sonda bezovta tortib akillaydigan itlarning ham uni o'chgandi. To'lin oy nuriga chulg'angan kecha bag'rida og'ir sukunat cho'kib yotar va bu jimjit yurakka qandaydir mubham go'rquv solayotgandek tuyuladi". [3.107]

Keltirilgan lavhada, roviy obrazi o'zining qay ahvolda umr kechirayotganidan xabar bermoqchi. E'tibor beraylik, nega aynan payshanbadan – jumga o'tar kechasi sodir bo'layapti?! Odam Ato va Momo Havoning ta'qiqlangan mevani yeb, jannatdan badar ketishida ham ayni shu falsafa aks ettiriladi. Odam bolasining gunohga muzaturu muntazir bo'lib, yer yuziga quvib solinishi ham ayni shu jannatdan tushirilib, guohlardan forig' – tavba tazarru qilmagunicha jannatni o'ylab ham ko'rmasligi ayonlashadi. Hikoyadagi o'quvchini o'ziga rom qilayotgan voqealik ham o'sha – Qur'ondagi Shayton obrazining mazmun-mohiyatiga borib tutashadi. Ulug' juma kuni Alloh Odamni yaratdi. Bu haqda ko'plab hadislar, oyatlar, aqidalar mavjud.

Shayx Muhammadsodiq Muhammad Yusuf qayd etishicha: *"Alloh subhanahu va taolo Odamni tuproqdan yaratdi. So'ng unga O'z ruhidan, ya'ni O'zi yaratgan ruhdan jon pufladi. Odamga O'zi bu dunyoda yaratib qo'yg'an har bir narsaning nomini o'rgatdi, farishtalarni unga sajda-ta'zim qilishga amr etdi. Odamga sajda qilishdan bosh tortgan, Allohning amriga bo'ysunmagan iblisni esa la'natlab, O'z huzuridan quvdi".*

Bu haqda Alloh subhanahu va taolo quyidagi oyatni nozil etib, shunday bayon qilgan:

"Esla, Robbing farishtalarga: "Men yer yuzida xalifa qilmoqchiman", dedi. Ular: "Unda buzg'unchilik qiladigan, qon to'kadigan kimsani (xalifa) qilasanmi? Holbuki, biz Seni hamding ila poklab yod etib va Seni muqaddaslab turibmiz», dedilar. (U Zot) "Men siz bilmaydigan narsani bilaman», dedi" (Baqara surasi, 30-oyat).

Ushbu oyatdan ma'lum bo'lyaptiki, Alloh taolo Odamni O'zining yer yuzidagi o'rinbosari – xalifasi bo'lishini iroda etgan ekan. Demak, insonga ulkan ishonch bildirilgan, u ulug' Allohning xalifasi bo'lishdek oliy maqomga loyiq ko'rilgan. Bunday marhamatning o'ziga yarasha buyuk mas'uliyati ham bor. Inson shuni anglagan holda, uni xalifa qilib qo'yg'an Zotning buyurganlarini bajarmog'i, yaratgan Zot munosib ko'rgan oliy maqomga dog' tushirmaslikka harakat qilmog'i kerak". [6]

Keltirilgan lavhaga e'tibor berilsa, Iblis Odamga sajda qilmay faqatgina men olovdan yaralganman deb, bosh tortadi. Shu tariqa Allohning la'natiga uchraydi. Ana shu voqeadan keyin Iblis Odam bolasidan o'ch olish maqsadida doim uni yo'ldan adashiruvchi bo'lib, mudomi hayotini xavf ostiga qo'yib, undan qasos olish payida yuradi.

Shodiqul Hamro hikoyasidagi ramzlar, metaforalar, tush orqali ochib beriladi. Buning yorqin natijasi ikki aka-uka orasidagi bo'lib o'tgan dialogdan keyin ravshanlashadi. Erix Fromm tush mavzusini real va ong osti voqealari fonida talqin qilishga odatlangan. Quyidagi talqinda Erix Frommning tushga doir mulohazalarini keltirib o'tamiz: *"Aflotundan tortib to Freydgacha tushlarni tadqiq qiluvchilar, uyqu holati shunday tanazzulga yaqin xususiyatlarga ega ekanligini tan olganlar. Ushbu mulohazaga tayanadigan bo'lsak, tushlarda bizning aqlga sig'maydigan*

darajadagi ibtidoiy istak-xohishlarimiz aks etadi. Tushlarni eslab qololmasligimiz sababi esa ularidagi nosog'lom, aql bovar qilmas darajadagi istaklardan uyalganimiz, chunki ular jamiyatdagi ijtimoiy nazorat ostida. Tush haqidagi bunday tushuncha yagona to'g'ri ylmikin yoki jamiyatning bizga salbiy ta'siri natijasimikin, degan savolga javobni tush tushlari mantiqsiz, bir-biriga qarama-qarshi hollarga tashvish sabablaridan qidirish kerakmikin? Tushda aql bilan ish tutmaymiz, axloqsizlikka yo'l qo'ymiz, ba'zan, aksincha, o'ta ozikta'b, aqlli, qobiliyatli bo'lib qolami. Darhaqiqat, insonning aql-onggi, ruhiyati rivojlanishiga madaniyatning nafaqat foydali, balki zararli ta'siri ham bor. Insonlar bir-biriga bog'langan, bir-biriga muhtoj. Insoniyat tariziga hozirgi kunga qadar o'ziga xos bir xususiyat ta'sir qilib keladi – uning zarur ehtiyojini qondiradigan moddiy ishlab chiqarishning yetishmasligi"

[4.67]

Binobarin, Erix Fromm o'z ustoz Zigmund Freyd nazariyasiga asoslanib, tush va o'ng orasidagi kechadigan jarayonni ong va ongsizlik nazariyasi bilan qiyoslab talqin etadi. Inson uxlaganida turli xil tush ko'rishi mumkin. Biroq u tushini eslab qololmasligi, g'alati bir ahvolda hayot tarzini davom etishi, tushida o'lib qolishi, suvga cho'kishi, avtohalokatga uchrashi, olov ichida qolishi, yonishi va boshqa masalalar real hayotga ko'chib o'tganida esa boshqacha mazmun-mohiyatga evrilishi mumkin.

Masalan, Shodiqul Hamro hikoyalarida ko'pincha tun, tush va odam obrazi, ularning munosabatlari, ikkala qahramonning yashash tarzi. Shu mistik-fantastik, yoki mifologik obrazlar semasida ochib beriladi. "Tushimdagi Olovxon" ham ayni shu masalaning yangicha talqini desak, mubolag'a bo'lmaydi. Hikoyadagi hikoyachi obrazi yana shulardan darak beradiki, suvga cho'kib o'lgan aka kelib, duo o'qimaganida, to'shagidagi yotgan haybatli mahluqdan ozod bo'lmasdi. U Shayton bilan birga bo'lish, u bilan qovushib, singib ketishi muqarrar edi. Qahramonga Shayton balki oshiq bo'lar, u qanday shaklda kelishidan qat'iy nazar, yo'ldan ozdiruvchi bir ismsiz maxluq bo'lib qolishi tayin. O'ylab ko'ridigan jihatlar hikoyada talaygina. Nazariy-ilmiy farazlarga tayanib tahlilni davom ettiradigan bo'slak, o'zbek adabiyotida Iblis obrazi juda ko'p yozuvchilarda uchraydi. Bu A.Qodiriyda ham, A.Qahhor yoki O' Umarbekov, Sh.Xolmirzayev, O'.Hoshimov, X.Do'stmuhammad, N.Eshonqul, U.Hamdam, I.Sulton, A.Yo'ldoshev, S.Vafo kabi yozuvchilar Iblis obrazini o'ziga xos, yangicha shaklda talqin ettganlar. F.Kafka ham mening hamma asarlarim bir kechada ko'rgan tushimning mahsuli deganida to'laqonli haq edi. U.Hamdamning ham o'z mulohazalari mavjud. Chunki isyonkor odam obrazi, tushidagi – Lola, yor, hammasi tush bilan bog'liq semalarning mahsuli ekanligi ayonlashadi.

Shodiqul Hamro "Tushimdagi Olovxon" hikoyasini quyidagi yo'sinda qayta kashf etadi:

"O sho'rlik akam, kutilmaganda uy ichida, yana deng yarim tunda qayerdan paydo bo'ldi, eshikdan kirib keldimi yo osmondan tushdimi bilmayman, faqat uning yuz-ko'zlarida xavotir va qo'rquvdan asar ham yo'q, o'zini xotirjam tutgancha jilmayib turardi. Men unga ko'zim tushdi-yu, rosit gap, birdan xo'rlikim kelib, ko'nglim o'ksib ketdi:

– Aka, – dedim yig'lagudek ovozda, – qarang, to'shagimga kimdir yotib olibdi...

– Xabarim bor, – dedi xotirjam ovozda to'shagim tomon ko'z tashlarkan, – hozirgina otam uyqudan uyg'otib, tezroq bor, ukangning uyiga anovi ismsiz kirib olibdi, yordam ber dedi. Shuning uchun shoshib kelaverdim...

Akam boshqa gapirmadi, aksincha, u kutilmaganda allaqanday jiddiy tortib, shunday to'shagim qarshisida cho'kka tushib o'tirdi-da, menga ham qo'li bilan o'tir, degandek ishora qildi. Men itoatkor qiyofada akamning qabatiga cho'kdim.

Keyin akam yengilgina tomoq qirib oldi-da, to'shagimga tikilgan ko'yi qiroat bilan allaqaysi duoni o'qishga tushdi. U, chamasi, allanimadan o'ng'aysizlanib turardi, shekilli, avvaliga ovozi uzilib-uzilib, bo'g'iq eshitila boshladi. Biroq u tezda o'zini o'nglab oldi va ovozi ravon tortib, oy nuridan yorishgan uy ichini tutib ketdi". [4. 112-113]

Muhokama. Hikoyada aka va uka orasidagi muloqot zamirida voqealarning ijobiy yakun topishiga qaratilgan ishora akslanadi. Bu tushdagi bo'lib o'tayotgan voqealardir. Onasining unchalik irim-sirimga ishonmasligi, shunday bo'lsa-da, Oy to'lib balqan kechada tashqariga chiqish, mumkine masligini bolalariga tayinlashi, duo o'qishi haqida ham o'z mulohazalarini keltirib o'tadi. Akaning ukaga kelishi Oxiratda yotgan otasining iltimosi bilan bo'ladi. Ota o'g'liga aytadi: "bolam borgin, ukangni holidan xabar ol, ismsiz bordi", - deya. Bu Shaytoni layinni badar ketqizish edi. Aka ukasi uchun jonini u dunyoda ham berishga tayyor. Mistik fragmentlar yozuvchi ijodiy kontsepsiyasida o'ziga xos o'rin tutadi. "Suratdagi ayol" obrazida ham ayolning narigi dunyodan kelib, talaba yigit bilan hovlilarni kezib yurishi, mana shu tariqa ro'y beradi. Hikoya qahramoni – Olovxon suluv malika bo'lishi, yoki u qahramonga chiroyli bir parivash bo'lib ko'rinishi ham mumkin edi. Nega u mehrob,

qiblagga qarab turgan joyga uy ichida tutun bo'lib singib ketmoqda. Mehrobdan chiqan chayon – insonni mavh etuvchi odamlar borligiga ishorami? Savollar o'z-o'zidan inson ruhiyatini yanada murakkab bir semalarga yetaklaydi. Akaning duosi sabab hikoyadagi Olovxon mehrob (uyning qiblasi)ga tomon boradi.

Hikoyadagi voqelik payshanbadan – jumaga o'tar kechasi ro'y bermoqda. Bir tunda sodir bo'lgan voqelik fonida yozuvchi azal va abad xususida ham tayinli xulosalar chiqarishga erishadi. Inson ruhiyatidagi tushga do'ngan hayoti uni tarbiya qilmoqda. Mehrob tomon o'rlagan qora tutundagi, turqi sovuq ismsiz jonzo nimaligini bilish esa qahramonga tizginsiz savollarni ko'ndalang qo'yadi. Inson nafsini jilovlay olgandagina murodiga yetishi tayin. Bu haqda prof.I.Haqqulov shunday yozadi: *“Modomiki, inson vujudi to'rt unsurdan yaralgan ekan, ularga muvofiq ravishda unga to'rt ruh ham berilgan. Bular: ruhi nabotiy, ruhi jismoniy, ruhi hayvoniy va ruhi insoniy. Yoki nafsni olaylik. Ma'lumki, nafs martabalaridan dastlab Hakim Termiziy so'z yuritib, ularni nafi ammora, nafi mulhama, nafi lavvoma, nafi mutmainna deya nomlagan”*. [2. 12]

Haqiqatdan ham, hikoyada Shaytonning insonni yo'ldan ozdiruvchi, ko'zni qamashtiruvchi va tushkunlikka tushuruvchi bir mahluq sifatida qahramonning to'shagiga kirib olishi, balki u qalbiga kirib olishga uringandir. Bularni yozuvchi ikki yo'sinda o'quvchiga tanishtiradi. Birinchidan, qora rangli ismsiz mahluq, qahramon qo'nyiga kirdi. Ko'pincha erkakka urg'ochi, ayolga erkak shayton yaqinlashib, yo'ldan ozdiradi, degan qarashlar bor. Buni inkor qilib bo'lmaydi. It yoki ilon, timsolida ham tushimizga ba'zan shayton in quradi. Bu haqda quyidagi manbalar ham to'laqoni yuqoridagi mulohazalarimizni asoslaydi:

“Hasan Basriy rahmatullohi alayh bu oyat tafsirida: “Insonga dunyoni yaxshi ko'rsatuvchi Alloh emas, balki shaytondir”, Inson fikri-zikrini dunyo matolari egallab olib, shularni deb odamzot bir-birini aldaydi, bir-birini qatl etadi, bir-biri bilan nizolashib, talashib-tortishadi. Alloh taolo ular talashib-tortishadigan narsalar o'tkinchiligini bildirib, ularga aldanib qolishdan ogohlantirmoqda. Agar inson nafsiga dunyodan bir eshik ochildi, shu eshikdan kirib olgandan keyin qaytib chiqishi amrimahol. Shu bois, dunyo osilib turgan meshga o'xshatilgan. Banda shu meshga igna teshigicha yo'l topsa, go'dak onasini emgandek, u ham dunyoga qattiq yopishib olar ekan. Agar e'tibor berilsa, oyati karimada aytib o'tilgan dunyo matolari hamma zamonlarda qadrlil hisoblanib, unga katta mashaqqat bilan erishilishiga guvoh bo'lamiz. Inson nafi ham shular qarshisida toqat qila olmay, unga sirli tarzda bog'lanib qolar ekan. Rasululloh alayhissalom: “Odam bolasi qarisa ham, undagi ikki istak qarimaydi: orzu-havas va molni yaxshi ko'rish”, dedilar. Rasululloh alayhissalom yana bir hadisda: “Sizlarni (mol-dunyo) to'plab-ko'paytirish mashg'ul qilib qo'ydi. Odam farzandi: “Molim, molim”, deydi. Senga molingdan faqat yeb chiqarganing, kiyib to'zg'itganing yoki sadaqa qilib, (ajr-savob) topganingdan boshqa nima qoladi?” – dedilar (Termiziy rivoyati)”. [5]

Keltirilgan misoldan ham tushunish mumkin, inson ko'zini dunyo moli bog'lab qo'yishi bor gap. Dunyo moli yaraqlab ko'rinadi. U shaytonning ishi. Haqiqiy taqvdor insonni ham yo'ldan adashitiruvchi shayton. Qabrdagi ota va ona, akasi ukasiga ishorat qilmoqda. Ertasi kuni bo'lib o'tgan voqelikni qarang: katta qari ilon kuppa-kunduz uyi oldida turibdi. Ilon xodamni bir umr ko'rishga mushoqman deydi. Uni mehrobgga singib ketganiga tegma, u senga baxt va omad olib keladi deydi. Bu yana Ilonning shaytonga aylanib, turli shakllarda odamni ruhini, botinini mavh etishiga qarang? Hikoyaning kulminatsion nuqtasi o'sha ilon va yigit o'rtasida kechadi.

“Yuksak san'atkorlar hikoyasidagi xarakter taqdirida ma'lum darajada davr va mamlakat, qolaversa, jamiyat taqdiri namoyon bo'ladi. Hikoyada xarakter tarozu o'lchovi, biroq u faqatgina xarakter bo'lib qolsa, (“samotsel”ga aylansa) qahramon xakteri asar g'oyasiga singdirilib yuborilmasa va, aksincha, asar g'oyasi qahramon xakterida o'z ifodasini

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Адабиёт назарияси. 3-жилдлик. 1-жилд. –Т: Фан, 1991. –Б.74.
2. Ҳаққулов И. Талант – жасорат жавҳари. –Т: “Мухаррир”. 2018. –Б.12.
3. Шодикул Ҳамо. Кўк кўл. –Т: “Янги аср авлоди”. 2025. –Б.107.
4. Эрих Фромм. Инсон қалби. Унинг эзулик а ёвузликка бўлган лаёқати. –Т: “Ўзбекистн”. 2016. –Б.67.
5. <https://islom.uz/maqola/3069>

topa olmasa, asarning g'oyaviy-badiiy qimmatini yo'qoladi. Va, aksincha, xarakter, ikkinchi o'ringa tushib qolib, faqatgina syujetga berilib ketish “samotsel'ga aylanish” ham salbiy oqibatga olib keladi. Hikoya asosida qiziq voqea emas, qiziq xarakter, boy voqea emas, boy xarakter yotishi kerak. Aniqrug'i, voqea tayin tutruqsiz sochma emas, ma'lum tevaragida jipslashuvi lozim. Bundan kelib chiqadiki, hikoya janrida xarakter syujet va boshqa masalalarga nisbatan hal qiluvchi ahamiyatga ega”. [1.74]

Ko'rib o'tganimizdek, har qanday hikoyadagi badiiy shartlilik masalasi inson omili, taqdiri, uning maqsad va maslagi bilan chambarchas bog'liqdir. Shunday ekan, hamma yozilgan asarlarni hikoya deb nomlash, janrning tabiatini tushunmaslikdan o'zga narsa emas. bugungi adabiy jarayonda yozilayotgan qator hikoyalar – hikoyaning soyasidagi ocherklardan farq etmaydi. Bular tasvirdagi me'yorni ham to'g'ri talqin etishga o'zlik qiladi. Shu boisdan ham, aksariyat hollarda yozuvchilar hikoya yozishga qiynaladilar. G'oyani ochib, olib chiqish uchun matonat, sabr va toqat talab qiladi.

Yozuvchi Shodiqul Hamroning “Tushimdagi Olovxon” hikoyasining eng xarakterli jihati quyidagi misolda aks etgan:

“Ilon eshilib-to'lg'onib, ming bir tush toblanib, yana uzoq gairdi, rostdan ham, uning so'zlarida kishining aqlu shurni mahv etib qo'yadigan sehr va shiddat bor edi, ba'zan u xuddi onam yoki singlim singar mehr va kuyunchaklik bilan o'ziga juda yaqin olib gapirar, pand-nasihat qilar va taskin-tasalli berardi. Uning so'zlarini tinglarkanman, boya ko'nglimda jo'sh urib turgan qasos hissi, jur'atu tal'at xuddi lovullab yonayotgan olovga bir chelak suv sepgandek asta-sekin so'nib borayotgandek edi.

– Olovxon seni kutaypti. Fursatni g'animat bilib, xojamning etagidan tut, – dedi yana ilon vishillab.

Bu uning oxirgi so'zi edi. shundan so'ng u ko'z o'ngimda xuddi hamlaga shaylangandek, ulkan boshini hovoga ilkis ko'tardi-da, shitob bilan qattiq silkindi, bu zarbdan uning hovli o'rtasiga cho'zilib borgan dumigacha to'lg'anib tushdi va u to'lg'ana tuib, kutilmaganda qop-qora tutunga aylanib, havoga singib ketdi...” [3.117-118]

Yigit va ilon o'rtasidagi o'zaro ishonchli muloqotga aylangan voqelik Olovxonga nisbatan ko'nglida ilqlikni paydo ham qiladi. Chunki u Olovxonni o'ldirish maqsadida mehrobni boltalamoqchi edi. U o'z nafsini tarbiya qilish lozimligini tushuna boradi. Otasi va onasi, akasi uning ishoralar, ramzlar vositasi bo'lib xizmat qilmoqda. Qarang: inson tug'ilarkan, begunoh bo'lib yaraladi. Uni o'rab turgan muhit, changaliga olgan boylilik, jononlar, va boshqa narsalarga uchib. O'zini-o'zi kemira boradi. yaxshilikka xizmat qilish o'rniga yomonlikni o'ziga do'st biladi. Ana shundan keyin xatolar, iztiroblar, og'riqlar iskanjasida qoladi bir umr. Bularning barchasini nafs boshqaradi. Nafsni ham ijobiy tomonlari bor. Salbiy tomoni insonni mavh etishda davom etib kelayotir. Hikoyada ko'zlangan asosiy syujet chiziqlari – nafsdir. Inson tushida ham Shayton nafsda ozdirmoqchi bo'ladi. Uni o'ldirish, ko'ngil qarorgohi – qibla, Ka'bani obod qilish bilan barobardir.

Xulosa. Har qanday inson ruhiyatini kashf qilish, mohiyatga yaqinlashish, o'zlikni, avvalo, Tangri taoloni anglash, uning yer yuzidagi jamiki yaratuvchanligini tushunib yetishga yetaklovchi badiiy adabiyotning turfa janrlarida bitta ma'ni umumiylashadi: u ham bo'lsa – odamning tirikligi, mavjudligi, hayotdagi maqsad-intilishlaridir. Hikoya qadim va an'analar bag'rida taraqqiy etib kelayotgan janrlarning biridir. Ushbu modifikatsion o'sish-o'zgarishlar, tadjriy taraqqiyot tendentsiyalari inson qalbining faqat bir tomonini ko'rsatishga qodirdir. Ayni chog'da, tiriklikning o'zi bir – buyuklik ekanligini anglashga katta zinapoya vazifasini o'taydi. Janrlar taraqqiy etadi, rivojlanadi, inqirozga yuz tutadi, yangilanadi, o'quvchi qalbida yashashga umid, rag'bat uyg'otadi, bani bashariyat muammolarining ildizlariga olib boradi, eng muhimi bizga kim ekanligimizni, maqsadimizni mudomi hayratlantirib bildirib turadi. Zero, talqin va tahlillar shuni taqozo qilmoqda.

6. <https://islom.uz/maqola/9697>

7. Rahimov D. Adabiyot va mentalitet. – Toshkent: Ma'naviyat, 2023. – 205 b.

8. Saidov H. O'zbek nasrida psixologizm. – Toshkent: Fan, 2020. – 184 b.

9. Qodirova N. Zamonaviy adabiyotda xronotop masalasi. – Toshkent: Universitet, 2022 – 200 b